

Modern education and development

**Namangan viloyati Chortoq tumani 2021-2023 yillarda amalga oshirilgan
tashabbusli budjetlashtirish jarayoni**

Iftixorbek Po'latov

Sunnatillo Sayfullayev

Shohrux Tursunaliyev

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti

“Moliya” fakulteti MMT 81k-guruh talabalari

Annotatsiya: Maqolada mahalliy byudjetlarning daromadlar bazasini shakllantirish, mahalliy byudjetlar daromadlari va xarajatlari samaradorligini ta'minlashning ilmiy-amaliy jihatlari yoritilgan. Hududlarning iqtisodiy salohiyatidan oqilona foydalanish, shuningdek, mahalliy budget xarajatlaridan oqilona va samarali foydalanish hisobiga mahalliy byudjetlar daromadlari barqarorligini ta'minlash imkoniyatlari asoslab berilgan. Tadqiqotlar asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: mahalliy byudjet; mahalliy byudjet daromadlari; mahalliy byudjet xarajatlari; mahalliy hokimiyat organlari; mahalliy soliqlar va yig'imlar; hududlar; mintaqaviy iqtisodiyot.

So'nggi yillarda mamlakatimizda byudjet ma'lumotlarining ochiqligi va shaffofligini yanada oshirish, byudjet mablag'larining shakllanishi va sarflanishi ustidan va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Biz mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tashabbusli byudjetlashtirish amaliyoti, mavjud holatni o'rGANISH uchun Namangan viloyati Chortoq tumani misolida 2021-2023-yillarda “Tashabbusli byudjet” loyihalari va ularning ijrosi

yuzasidan olib borilgan ishlar bilan bog’liq ma’lumotlar bilan tanishib chiqdik. Mamlakatimiz fuqarolarning budget jarayonida ishtirok etishi birinchi martta 2018-yil 22-avgustda qabul qilingan «Budget ma’lumotlarining ochiqligini va budget jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minalash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi O’zbekisto Prezidenti qarori bilan ilgari surilgan. Natijada tumanlar budgetidagi qo‘srimcha daromadlarning 10 foizini fuqarolar tomonidan taklif qilingan muammolar yechimini moliyalashtirishga yo‘naltirish imkoniyati paydo bo’ldi. Bu bilan to’xtab qolinmadni va Prezidentning 2021-yil aprelda qabul qilingan «Budget jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minalash bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarorida tumanlar (shaharlar) budgetlari umumiylarining 5 foizini fuqarolar tomonidan kiritilgan takliflarni moliyalashtirishga yo‘naltirish belgilandi va tuman-shaharlar budgeti qo‘srimcha daromadlarining 10 foizi o’rniga endi kamida 30 foizi fuqarolar tashabbuslariga yo‘naltirilishi belgilandi. Quyidagi 1-jadvalda 2021-2023-yillarda Namangan viloyati Chortoq tumani tashabbusli budgetlashtirish uchun yo‘naltirilgan mablag’lar miqdori keltirib o’tilgan:

1-jadval

Namangan viloyati Chortoq tumani tashabbusli budgetlashtirish uchun yo‘naltirilgan mablag’lar miqdori¹

¹ <https://openbudget.uz/boards/reports>

Modern education and development

Quyidagi jadvalda 2021-2023-yillarda Namangan viloyati Chortoq tumani tashabbusli budjetlashtirish uchun yo'naltirilgan mablag'lar miqdori keltirib o'tilgan:

(ming so'mda)

T/r	Ko'rsatkich nomi	2021-yil	2022-yil	2023-yil
1.	Yil boshiga qoldiq	12200,0	296205,0	505400,0
2.	Hisobot davrida "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"ga o'tkazilgan mablag'lar	1691500,0	5091730,0	19562000,0
3.	"Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"dan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo'naltirilgan	1459596,8	5386916,0	7157700,0
3.1.	Bajarilgan ishlar uchun xisobvaraqlardan moliyalashtirilgan mablag'	1459596,8	11396,6	12625500,0
3.2.	Hisobvaraqlardagi qoldiq	-	7512,7	
4.	"Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"da qoldiq mablag'	253934,1	5370648,0	284200,0

Biz birgalikda Namangan viloyati Chortoq tumanida 2021-2023 yillar oralig'ida amalga oshirilgan tashabbusli byudjet loyihalari hisobotlarini diqqat bilan o'rganib chiqdik. Tashabbusli byudjet loyihasi xisobotlari shuni ko'rsatib turibdiki: 2021- yil boshidagi qoldiq **12200,0** ming so'mni , hisobot davrida "**Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi**"ga o'tkazilgan mablag'lar **1691500,0** ming so'mni, shuningdek "**Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi**"dan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo'naltirilgan mablag' **1459596,8** ming so'm va yil

Modern education and development

oxiridagi “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”da qoldiq mablag‘ **253934,1** ming so‘mni tashkil etganini ko‘rdik . 2022 yildagi yil boshidagi qoldiq esa **296205,0** ming so‘mni tashkil etgan Hisobot davrida “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga o‘tkazilgan mablag‘lar **509173,0** ming so‘m, shuningdek “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”dan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilgan mablag‘ **5386916,0** ming so‘m va yil oxiridagi “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”da qoldiq mablag‘ **5370648,0** ming so‘mni tashkil etgan. 2023 yildagi yil boshidagi qoldiq esa 505400,0 ming so‘mni tashkil etgan Hisobot davrida “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga o‘tkazilgan mablag‘lar **19562000,0** ming so‘m va yil oxiridagi “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”da qoldiq mablag‘ **284200,0** ming so‘mni tashkil etgan . Keltirilgan jadval ma’lumotlaridan shuni ko‘rib turibmizki 2021-yil tashabbusli byudjet loyihasining boshlang‘ich davri bo‘lganligi sababli loyiha uchun kamroq miqdordagi summa tajriba tariqasida kiritilgan. Loyerha o‘zini yaxshi darajada oqladi hamda loyiha uchun yildan yilga ajratilgan summalar miqdori yildan yilga ortib bormoqda.

2-jadval

Namangan viloyati Chortoq tumani tashabbusli budgetlashtirish jarayoni natijasida amalga oshirilgan tadbirlar²

T/r	Tadbirlar nomi	Moliyalashtirilgan takliflar soni			Sarflangan mablag‘ (ming so‘mda)		
		2021-yil	2022-yil	2023-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil

² <https://openbudget.uz/boards/reports>

Modern education and development

Jami		8	40	45	1459596,8	15434700,0	7268970,0
1.	Hududiy ichki yo'llar	6	10		1240000,0	2169,2	
2.	Umumta'lim maktablarini ta'mirlash va jihozlash	0	9	16	0	3753,9	1809100,0
3.	Maktabgacha ta'lim muassasalarini ta'mirlash va jihozlash	0	5	1	0	2425,6	800,0
4.	Sog'liqni saqlash muassasalarini ta'mirlash va jihozlash	0	3	21	0	1719,7	3711720,0
5.	Boshqa ijtimoiy soha muassasalarini ta'mirlash va jihozlash	0	6	1	0	1684,3	752850,0
6.	Ichimlik suvi ta'minotini yaxshilash	0	0	0	0	0	0
7.	Ko'cha chiroqlarini o'rnatish tadbirlari	2	3	0	219596,8	1410,6	0
8.	Hududlarni tartibga keltirish (obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish)	0	0	0	0	0	0
9.	Boshqa tadbirlar	0	4	6	0	2271,4	994500,0

2-jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatib turibdiki: Namangan viloyati Chortoq tumani tashabbusli budgetlashtirish natijasida amalga oshirilgan tadbirlarda 2021 yilda Jami 8 takliflarga **1459596,8** ming so'm mablag' moliyalashtirilgan, 2022-

yilda esa bu takliflar soni 40 tani moliyalashtirilgan mablag' miqdori esa 15434700,0 ming so'mni tashkil etgan, 2023 yilda takliflar qariyb 1,125 baravar oshib 45tani ajratilgan mablag' qiymati esa **7268970,0** ming so'mni tashkil etgan.2021-yilda asosan Hududiy ichki yo'llarga **1240000,0** ming so'm mablag' ajratilgan va Ko'cha chiroqlarini o'rnatish tadbirlariga **219596,8** ming so'm ajratilgan .2022 yilda esa Hududiy ichki yo'llarga 10ta loyiha uchun **2169200,0** ming so'm ajratilgan.Umumta'lim maktablarini ta'mirlash va jihozlash 9 ta loyihaga **3753900,0** ming so'm, Sog'liqni saqlash muassasalarini ta'mirlash va jihozlash uchun jami 3 ta loyihaga **1719700,0** ming so'm ajratilgan va hokazo. 2023 yilda tumandagi eng ko'p mablag' ajratilgan soha Sog'liqni saqlash muassasalarini ta'mirlash va jihozlash uchun jami 21 loyihaga **3711720,0** Umumta'lim maktablarini ta'mirlash va jihozlash uchun 16 loyihaga **1809100,0** ming so'm, boshqa tadbirlarga esa jami hisobda **994500,0** ming so'm mablag' ajratilgan. Loyiha asosida tumanlarning yo'l qismlari,sog'liqni saqlash muassasalari va maktab binolari birqadar yaxshi va qulay sharoitar va ko'rinishlarga kelmoqda.

Bunday loyixalarasosida albatta o'z xalqimizning bir qadar yaxshi sharoitlarda ta'lim olishi, samarali va sifatli shifokor xizmatlaridan foydalanishini taminlash asosiy maqsadimiz aslida va albatta bu maqsadlarni qadam-ba qadam amalgalashimiz eng samarali yo'l hisoblanadi.

Quyida kelgan 3- jadvalda 2021-2023-yillarda tumanida Fuqarolar tashabbusli jamg'armasi mablag'larining shakllanish manbalari keltirilgan ya'ni tashabbusli byudjetni moliyalashtirish qaysi manbalar asosida shakllantirilganini ko'rib chiqdik.

3-jadval

**Namangan viloyati Chortoq tumanida Fuqarolar tashabbusli jamg'armasi
mablag'larining shakllanish manbalari³**

(mln,so'm)

Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi mablag'larini shakllantirish manbalari		2021-yil	2022-yil	2023-yil
Tuman mahalliy budgeti tasdiqlangan umumiy xarajatlarning 5 foiz qismi miqdorida ajratilgan mabag'lar		0	9 654,86	16 637
Tuman mahalliy budgeti qo'shimcha manbalarning 30 fozi miqdorida ajratiladigan mablag'lar		551,53	2 979,31	4 946,3
Shu jumladan	Erkin qoldiq mablag'lari	12,2	1 907,7	260,23
	Daromadlarning hisobot choraklari yakunlari bo'yicha aniqlanadigan prognozdan oshirib bajarilgan qismi	539,33	68 955,39	3 747,5
	Iqtisod qilingan mablag'lar	0	0	705,3
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 26-oktabrdagi PQ-409-son qaroriga binoan(2-mavsum uchun)		0	1 640	0
Jami ajratiladigan mablag'lar	1 103,06	85 137,26	26 296,33	

Namangan viloyati Norin tumanida tuman mahalliy budgeti tasdiqlangan umumiy xarajatlarning 5 foiz qismi miqdorida ajratilgan mabag'lar 2021-yil

³ <https://openbudget.uz/boards/reports>

choraklar kesimida mablag' ajratilmagan 2022-yilda **9654,86** mln.so'mni tashkil qilmoqda. 2023-yilda esa **16637** mln.so'm mablag' ajratilgan. Jami ajratilgan summalar 2021-yilda **1 103,06** mln.so'm. 2022-yilda **85 137,26** mln.so'm. 2023-yilda esa **26 296,33** mln.so'm mablag' ajratilgan. 2022-yillarda Prezident qaroriga muvofiq mablag' ajratilgan bo'lib bu **1 640** mln.so'm ajratilgan.

Ko'rib turganimizdek tashabbusli byudjetlashtirish loyixasini amalga oshirish uchun ajratilayotgan mablag'lar miqdori yildan yilga ortib bormoqda va albatta ushbu mablag'lar xisobidan bajarilayotgan ishlar sifati hamda ko'lami ham ortmoqda. Bunga asosan tuman mahalliy budjeti qo'shimcha manbalarning 30%i miqdorida ajratiladigan mablag'larning miqdori ortib borayotganligi, qolaversa tuman byudjetining orrtirib bajarilgan qismining 5%i miqdori yana qaytarib tuman byudjetiga o'tkazib berilayotganligi va O'zbekiston respublikasi prezidentining qaror va farmoishlariga binoan o'tkazilayotgan qo'shimcha pul mablag'larini yaqqol misolida ko'ra olamiz.

4-jadval

Namangan viloyati Chortoq tumani tashabbusli budjetlashtirish natijasida amalga oshirilgan loyihamalar tarkibi⁴

T/r	Tadbirning qisqacha mazmuni (sohasi)	Jami to'plagan ovozlar soni	Moliyalashtirish uchun ajratilgan mablag' miqdori
2021-yilda			
1.	Bagrikenglik MFY da svetafor o'rnatish, Olmazor , Bog', Guliston	1805	120 000,0

⁴ <https://openbudget.uz/boards/reports>

Modern education and development

	ko'chalari tunggi yoritish va kuzatuv kameralari o'rnatish		
2.	Bolon MFY Sadoqat ko'chasini asfaltlash	1210	20 000,0
3.	Bozorboshi MFY G'afur G'ulom ko'chasini asfaltlash	361	450000,0
4.	Uzun ko'cha MFY ga Gul tepa ko'chasini 250 metr ichki ko'chasini asfaltlash	281	94000,0
5.	Baynalminal MFY Axillik ko'chasini 300 metr ichki ko'chasini asfaltlash	160	113000,0
6.	Laskidon MFY Birdamlik ko'chasini asfaltlash	128	188000,0
7.	Bolon MFY Sadoqat ko'chasi dagi stolbalarni yangilash va tungi yoritish chiroqlarini o'rnatish	23	99707,6
8.	Bagrikenglik MFY xududini asfaltlash	12	195000,0
9.	Jami	3980	1459596,8
2022-yilda			
1.	Maktabgacha ta'lif muassasalarini ta'mirlash va moddiy texnik bazasini rivojlantirish tadbirlari	2174	927,1

Modern education and development

2.	Umumta'lim maktablarini ta'mirlash va moddiy texnik bazasini rivojlantirish tadbirlari	2169	940,6
3.	Aholi dam olish maskanlarini ta'mirlash yoki moddiy texnik bazasini rivojlantirish bilan bog'liq tadbirlari	1990	563,9
4.	Ichki yo'llarni ta'mirlash bilan bog'liq tadbirlar	1767	598,4
5.	Ichki yo'llarni ta'mirlash bilan bog'liq tadbirlar	1738	195,2
6.	Ichki yo'llarni ta'mirlash bilan bog'liq tadbirlar	1511	99,9
7.	Bolalar maydonchalarini barpo etish yoki ta'mirlash bilan bog'liq tadbirlar	1476	577,5
8.	Ichki yo'llarni ta'mirlash bilan bog'liq tadbirlar	1462	644,7
9.	Ichki yo'llarni ta'mirlash bilan bog'liq tadbirlar	1401	645,0
10.	Umumta'lim maktablarini ta'mirlash va moddiy texnik bazasini rivojlantirish tadbirlari	4467	1100
11.	Mahalla guzarini ta'mirlash - tiklash bilan bog'liq xarajatlar	4379	600,0

Modern education and development

12	Mahalla guzarini ta'mirlash - tiklash bilan bog'liq xarajatlar	4192	700,0
13	Umumta'lim maktablarini ta'mirlash va moddiy texnik bazasini rivojlantirish tadbirlari	4100	1125,0
14	Umumta'lim maktablarini ta'mirlash va moddiy texnik bazasini rivojlantirish tadbirlari	4053	1000,0
15	Boshqa ta'lim muassasalarini ta'mirlash va moddiy texnik bazasini rivojlantirish tadbirlari	3867	500,0
16	Sog'liqni saqlash muassasalarini ta'mirlash va moddiy texnik bazasini rivojlantirish tadbirlari	3596	990,0
17	Mahalla guzarini ta'mirlash - tiklash bilan bog'liq xarajatlar	3570	650,0
	Jami :	47912	11857,3
2023-yilda			

1.	Chortoq Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumiga Quyosh panellarini o'rnatish ,binolarning ichki isitish tizimini yangilash ,deraza romlarini zamonaviy energiya saqlovchi alyumin profilli deraza romlariga almashtirish	8949	1000,0
----	---	------	--------

2.	Chortoq tumani tibbiyot birlashmasiga qarashli ko'p tarmoqli markaziy poliklinika ,oilaviy poliklinikalar , oilaviy shifokorlik punktlari va hududiy bo'limlariga quyosh panellari o'rnatish	7524	900,0
3.	Aholiga qulaylik yaratish maqsadida Chortoq tumani tibbiyot birlashmasiga qarashli markaziy shifoxonadagi mavjud bo'lim binolarini istish uchun har bir binolarga alohida isitish qozonlari va quyosh panellari o'rnatish	6522	800,0
4.	Aholiga qulaylik yaratish maqsadida Chortoq tumani tibbiyot birlashmasiga qarashli bo'limlarda foydalanish uchun qattiq jihozlar sotib olish	5795	800,0
5.	Chortoq tumanida Beshkapa mahalla fuqarolar yoniga bino qurish	5158	750,0
6.	Aholiga qulaylik yaratish maqsadida Chortoq tumani tibbiyot birlashmasiga qarashli Peshqo'rg'on hududiy va	4927	1200,0

Modern education and development

	tug'ruqxona bo'limi binosini joriy ta'mirlash		
7.	11-maktabga qayta tiklanuvchi energiya qurilmalari o'rnatish Akkumlytor batareyasi bilan maktabga zamonaviy moddiy texnikalar sotib olish	4394	700,0
8.	Quyosh paneli tiklanuvchi energiya 10 kw li akkumlyator bilan 5-sonli davlat ixtisoslashtirilgan maktab internatining binolarini kapital ta'mirlash , moddiy texnik bazasini boyitish	3461	300,0
9.	Prezident ta'lim muassasalari agentligi tassarufidagi Chortoq tuman ixtisoslashgan maktabga 150 o'rinali oshxona qurish	3408	800,0
10.	Chortoq tumanidagi 24-umumta'lim maktabiga 1.20 kw quvvatli quyosh panelini o'rnatish Zamonaviy axborot texnologiyalari qurilmalari hamda moddiy texnik bazasini mustahkamlash bilan ta'minlash	3070	800,0
11	Aholiga qulaylik yaratish maqsadida Chortoq tuman tibbiyot birlashmasiga qarashli Hazratishox oilaviy shifokorlik punkti binosini	2747	1000,0

Modern education and development

	mukammal ta'mirlash va hojatxona qurish		
12	Chortoq tumani 12-sonli maktabida 1. qayta tiklanuvchi elektr qurilmalari quyosh elektr panellari 20 kw akkumlyator batareyasi boshqa jihozlar , xizmat ko'rsatish va o'rnatish bilan , maktabga oshxona binosini qurish va oshxona jihozlari bilan ta'minlash , Maktabning issiqlik tizimini to'liq almashtirish	2625	1000,0
13	Chortoq tumani XTB ga qarashli 38-sonli umumiyl o'rta ta'lim maktabiga 1sport maydonchasini 2 quyosh batareyasi o'rnatish 10 kw .Muassasaga moddiy texnika bazasini sotib olish	2330	600,0
14	3-sonli umumiyl o'rta ta'lim maktabiga qayta tiklanuvchi energiya qurilmalarini o'rnatish Akkumlyator batareyasi Maktabga oshxona binosini qurish va jihozlar sotib olish	2115	600,0
15	8-maktab O'qituvchi va o'quvchilar uchun oshxona qurish, isitish tarmog'ini yangilash	2097	700,0

Modern education and development

	va 15 kw quvvatga ega quyosh paneli va saqlagich o'rnatish		
16	Aholiga qulaylik yaratish maqsadida Chortoq tuman tibbiyot birlashmasiga qarashli Gulshan oilaviy shifokorlik punkti faoliyatini qayta tiklash maqsadida OSHP binosini mukammal ta'mirlash	3458	1300,0
17	Aholiga qulaylik yaratish maqsadida Chortoq tuman tibbiyot birlashmasiga qarashli Ziyokor oilaviy shifokorlik punkti faoliyatini qayta tiklash maqsadida OSHP binosini mukammal ta'mirlash	3351	1200,0
18	Chortoq tumani bolalalar sihatgohida foydalanish uchun jihozlar sotib olish	3320	900,0
19	Aholiga qulaylik yaratish maqsadida Chortoq tuman tibbiyot birlashmasiga qarashli markaziy shifoxonadagi binolarni joriy ta'mirlash	3310	1320,0
20	Aholiga qulaylik yaratish maqsadida Chortoq tuman tibbiyot birlashmasiga qarashli Arbag'ish	3297	1100,0

	oilaviy shifokorlik punkti binosini joriy ta'mirlash		
21	Aholiga qulaylik yaratish maqsadida Chortoq tuman tibbiyot birlashmasiga qarashli ko'p tarmoqli markaziy poliklinika binosidagi eskirgan liftni zamonaviysiga yangilash va KTMP hududiga kirish qismiga zamonaviy yopiq navesli turniket o'rnatish	3294	1200,0
	Jami	85152	18970,0

Tumanidagi 2021-yilda amalga oshirilgan jami umumiy loyihalar 3980 ovoz yig'ilgan bo'lib, shulardan onlayn ovozlar miqdori 154 tani , offlayn ovozlar soni 1524 tani va sms xabar orqali berilgan ovozlar soni 2302 tani tashkil etgan. Misol qilib Bagrikenglik MFY da svetafor o'rnatish, Olmazor , Bog', Guliston ko'chalarini tunggi yoritish va kuzatuv kameralari o'rnatish uchun 1805 ta ovoz yig'ilgan. Ushbu yil Tashabbusli byudjetlashtirish loyixasining dastlabki yili bo'lganliogi uchun loyihalar miqdori birmuncha kamroq

Yuqoridagi jadval ma'lumotlariga qaraganda shuni ko'rib turibmizki loyiha tadbirlari ko'rsatkichlari yildan yilga tajribalar asosida ortib bormoqda. 2022 - yilda bu ko'rsatkich jami ovozlar soni 47912 tani tashkil etgan. Shu jumladan onlayn ovozlar soni 119 ta va sms xabar orqali esa 47793 ta ovoz berilgan .Umumta'lim mакtablarini ta'mirlash va moddiy texnik bazasini rivojlantirish tadbirlari uchun jami 4467 ta ovoz yig'ilgan va ushbu loyiha ga **1100000.0** so'm mablag' ajratilgan. 2023 yilda esa ovoz berishning bir qancha qulay tarzda amalga oshirilganligining yaqqol misoli o'laroq jami ovozlarning

yani 85152 ta ovoz sms orqali ovoz berilgan. Chortoq Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumiga Quyosh panellarini o’rnatish ,binolarning ichki isitish tizimini yangilash ,deraza romlarini zamonaviy energiya saqlovchi alyumin profilli deraza romlariga almashadirish loyihalari uchun jami 8949 ta ovoz yig’gan bo’lib, loyihalarni moliyalashtirish uchun umumiyligi miqdorda **1000000.0** ming so’m ajratilgan. Jadval ma’lumotlari shuni ko’rsatadiki tashabbusli byudjetlashtirishning dastlabki yilda loyixa moliyalashtirilgan summasining asosiy qismi yo’l ta’miri uchun sarflangan. Keyingi yilda ushbu ko’ratkich tuman hududidagi birqancha eski maktab o’quv binolarini tamirlash uchun yo’naltirilgan. 2023-yilda esa tashabbusli byudjetlashtirish loyihasi ajratilgan mablag’larning asosiy qismi tuman tibbiyot birlashmasini binolarining tamiri uchun sarflangan.

Tashabbusli byudjetlashtirish loyihalari asnosida bilim, tajriba, va ko’nikmalarimiz yildan yilga mustahkamlanib, ortib bormoqda. Qolaversa loyihalarni mukammallashtirish hamda davlat byudjeti orqali loyihaga ajratilayotgan mablag’lar miqdorini bir qancha orttirish hamda barcha loyihalarni aholining o’z takliflari asosida samarali olib borishni maqsad qilganmiz.

Xulosa o’rnida shuni aytishimiz mumkinki, Namangan viloyati Chortoq tumanining 2021-2023-yillardagi tashabbusli byudjetlashtirish loyihalarini ko’rib chiqish jarayonida shunday xulosaga keldik: tashabbusli byudjetlashtirish loyihasi asnosida Chortoq tumanida yildan yilga ijobiy ko’rsatkichlar qayd etilmoqda. Tuman faollari fuqorolar ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda tashabbusli byudjet platformasiga o’z takliflarini kiritmoqdalar. Hisobotlar tumanning asosiy muammolar hududiy ichki yo’llarni tamirlash, umumta’lim maktablarini kapital va joriy ta’mirlash, qo’shimcha o’quv binolari, sport zallari, sun’iy futbol maydonlari qurishga hamda ularni jihozlash va shu kabi bir qator muammolar ushbu loyiha orqali o’z yechimini topganini hamda ushbu jarayon yildan yilga samarali davom etayotganini tasdiqlaydi. Moliyalashtirilgan

loyihalar soni ham yildan yilga oshib bormoqda: ya’ni 2021-yilda tumanda 8ta loyihaga umumiy miqdorda 1459596.8 **ming so’m** mablag’ ajratilgan bo’lsa , 2022 yilga kelib loyihalar qariyb 5 barobarga o’sib jami 40 ta loyihaga 15434700.0 **ming so’m** mab’lag’, 2023 yilda esa bu ko’rsatkich 45 ta loyihaga yetib 7268970.0 **ming so’m miqdorda** mablag’lar ajratilgan . Ushbu loyiha orqali yurtimizda amalga oshirilayotgan chora tadbirlar ko’lami yildan yilga ortib bormoqda. Loyihani amalga kiritishdan asosiy maqsad tumanlarimizdagi biz bilmagan bir qator muammolarni anashu tuman aholisining o’z takliflari asosida samarali hal qilishdan iborat.Qolaversa ushbu loyiha tadbirlari jarayonida ochiqlik, oshkorlik, shaffoflikni taminlashga alohida e’tibor qaratishimiz kerak bo’ladi. Aholining moliyaviy savodxonligini oshirish hamda o’z fikr va takliflarini mustaqil ravishda kiritishlarini aholida yo’lga qo’yishimiz va yetarli ma’lumotlar bazasini shakllantirishimiz kerak.

Takliflar:

Tashabbusli byudjetlashtirish loyihasining ijobiy taraflari ko’pligi kabi bir qator kamchiliklar ham mavjud. Loyihaning amalga oshirilishi uchun aholi fikrini o’rganish hamda ovoz berish jarayonidagi shaffoflikka bir qadar futur yetayotganini guvohi bo’lib turibmiz. Ya’ni aholimizda ushbu loyiha haqida, uning orqali amalga oshiriladigan tadbirlar haqida yetarli ma’lumotlarga ega emasligi tufayli ovoz berishdagi layoqatsizlik hollari bizga sir emas. O’z ovozini qandaydir miqdorda moddiy manfaatlar evaziga boshqa kimsalarga sotayotganlarining guvohimiz. Bu esa bir guruh kimsalarning manfaatlarigagina ishlamoqda halos. Bunga asosiy sabab aholidaga loyiha haqida uning mazmuni yetarli darajada singdirilmaganidan aslida.

Shu va bir qancha muammolarni yechimini qaror toptirish oldimizdagi asosiy maqsadligicha qolmoqda. Aholimizni loyiha haqida yetarli malumotlarni yetqazish hamda har bir ovoz berish chog’ida fuqarolar induvidual tarzda shaxsiy indefikatsiyadan foydalangan holda maxsus binolarda ovoz berishni tashkillashtirishimiz kerak. Hamda har bir mavsumda loyihalar uchun limit

beligilashimiz kerak. Sababi bir mavsumad asosan bir hil yo'nalishlar, misol chuchun faqatgina yo'l sohasi yoki maktablar ta'miri emas har bir sohadan bir qancha yutuqlarga erishishlikni taminlash siz bilan biz oldimizdagi vazifa hisoblanadi. Chunki loyiha orqali ortda qolayotgan va rivojlanish darajasi past bolgan chekka hududlarimizni ham boshqa hududlar doirasiga olib chiqishlikni taminlaymiz. Loyerha va loyiha amalga oshirish tadbirlari yildan yilga mukammallahib bormoqda hamda loyiha orqali yanada ko'proq va yuksakroq natijalarga erishishimizga ishonaman.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ваҳобов АВ, Маликов ТС. Молия. Дарслик/Тошкент Молия институти. Тошкент:“Шарқ. 2010;804.
2. Malikov, T., and Haydarov NH. Byudjet. "O‘quv qo ‘llanma." Toshkent:“Iqtisod-moliya 84 (2008).
3. TS Malikov, O Olimjonov. Moliya. - O 'quv qo 'llanma. Toshkent: Iqtisod-moliya, 2018
4. Malikov T, Haydarov N. Budget daromadlari va xarajatlari. O‘quv qo ‘llanma, Toshkent:“IQTISOD-MOLIYA. 2007.
5. Маликов ТС. Ҳайдаров НҲ “Молия: умумдавлат молияси”. Ўқув қўлланма. 2009.
6. Malikov TS. Byudjet-soliq siyosati. T.:“Iqtisod-moliya. 2019.
7. Malikov, T. S., & Olimjonov, O. O. (2019). Moliya: Darslik.
8. Malikov T, Haydarov N. Budget: tizimi, tuzilmasi, jarayoni. O‘quv qo‘llanma, Toshkent “IQTISOD-MOLIYA. 2008.

9. Ўроқов У. Бюджет маблағларидан самарали фойдаланишни таъминлаш йўллари. Т. 2017
10. У Ўроқов. Маҳаллий бюджетлар мустақиллигини оширишнинг устувор йўналишлари- Science and Education, 2022
11. У Ўроқов, Д Ускенбаева. Ўзбекистонда ташаббусли бюджетни жорий этишнинг ташкилий-хуқуқий асослари - Science and Education, 2022
12. Ўроқов У, Иргашев И, Ғайбуллаев О. Фуқаролар иштирокидаги маҳаллий бюджет. 2022
13. UY O'roqov, JA Yomg'Irov. Mahalliy byudjetlar barqarorligini ta'minlash masalalari - Central Asian Research Journal for Interdisciplinary ..., 2022
14. Ўроқов УЮ. Маҳаллий бюджетлар шаффоғлиги ва очиқлигини таъминлашнинг устувор йўналишлари. Бизнес-Эксперт журнали. 2020;4.
15. Ўроқов У. Ғайбуллаев О. Ўзбекистон Республикасида бюджет тизими ва жараёни: ўқув қўлланма. Тошкент: Baktria press. 2016.
16. Урков У. Маҳаллий бюджетлар мустақиллигини оширишга оид назарий карашлар. Республика илмий-амалий конференция. ТМИ 2020.
17. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар молиявий барқарорлигини белгиловчи кўрсаткичлар. 2020
18. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар даромадларини шакллантиришнинг самарали йўллари. 2017
19. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар даромад базасини кенгайтириш масалалари. Республика ўқув юртларапо конференция тўплами. ТМИ- 2009 йил (Vol. 18).
20. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар молиявий мустақилигини оширишнинг замонавий муаммолари. Халқаро илмий-амалий анжуман материаллари тўплами. ТМИ 2022 йил.
21. У Ўроқов. Маҳаллий бюджетлар молиявий мустақиллигини оширишнинг хуқуқий асослари.- Science and Education, 2023

22. G‘aybullayev O, O‘roqov U. O‘zbekiston Respublikasida budget tizimi va jarayoni. O‘quv qo‘llanma. T.: Baktriapress. 2016;168.
23. Xaydarov N. Soliqlar va soliqqa tortish masalalari. O‘quv qo‘llanma. Toshkent: Akademiya. 2007.
24. Хайдаров НХ. Маҳаллий бюджетлар: муаммо ва инновацион ечимлар. Ўзбекистон статистика ахборотномаси” илмий электрон журнали. 2020.
25. Хайдаров Н. Доходы местных бюджетов и пути их укрепления.“Молия” илмий журнали. 2022.
26. Хайдаров Н. Маҳаллий бюджетларнинг даромад манбалари. халқаро илмий-амалий конференция 2022.
27. Хайдаров Н. Маҳаллий бюджетлар даромадини барқарорлаштириш йўллари. халқаро илмий-амалий конференция мақолалар тўплами (Vol. 2022).
28. IB Masharipov. Relevance of civil society in the modern world, attitude and solutions. International Journal of Inclusive and Sustainable Education. 2023